

### Raq'amlar:

- 2019 yil Yanvar-may oyida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 4919,5 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'shish sur'ati 147,0 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1694,7 ming so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish aholining turmush darajasini, investitsion muhitini, ishbilarmonlik muhitini va biznesni rivojlantirishni yaxshilaydi.

2019 yil Yanvar-may oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 4919,5 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulush savdo xizmatlari (32,0 %), transport xizmatlari (26,0 %), moliyaviy xizmatlar (13,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2,5 %) tashkil etadi.


### 2019 yil Yanvar-may oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish  
(2019 yil Yanvar-may oyi uchun)**

	mlrd. so'm	2018 yil yanvar- may oyiga nisbatan % hisobida	yakunga nisbatan % hisobida
<b>Jami xizmatlar</b>	<b>4919,5</b>	<b>109,1</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan: xizmat turlari bo'yicha			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	120,7	106,9	2,5
moliyaviy xizmatlar	656,1	147,0	13,3
transport xizmatlari	1277,2	101,4	26,0
shu jumladan: avtotransport xizmati	1228,5	101,7	25,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	224,0	109,5	4,6
savdo xizmatlari	1572,4	103,0	32,0
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	170,8	101,4	3,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	117,3	114,5	2,4
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	90,0	120,0	1,8
ijara xizmatlari	156,8	101,3	3,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	114,6	103,8	2,3
shaxsiy xizmatlar	136,7	100,6	2,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	131,2	173,4	2,7
boshqa xizmatlar	151,7	99,7	3,1


## 2019 yil Yanvar-may oyida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd.sum



Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli bo'lmagan holda o'sish sur'ati transport xizmatlar bo'yicha kuzatildi. Ularning hajmi 2018 yil Yanvar-may oylariga nisbatan 133,2 mlrd.so'mga oshdi.

O'tgan yilning mos davriga savdo xizmatlari (238.8 mlrd.so'm) va moliyaviy xizmatlar (221.2 mlrd.so'm)ga oshganligi kuzatildi.

## 2019 yil Yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2019 yil Yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (173,4%), Moliyaviy xizmatlar (147,0%), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (120,0%), Ta'lim sohasidagi xizmatlar (114,5%) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


Eng past o'sish sur'atlari esa Boshqa xizmatlar (99,7%), Shaxsiy xizmatlar (100,6%), tashkil etdi.

### 2019 yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



Jami moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (86,0%) etakchilik qilmoqda. Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari tashkil etadi. Bugungi kunda savdo-sotiq iste'mol bozoriga bo'lgan talabni shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi. 2019 yil Yanvar-may oylarida savdo xizmatlari hajmi 1572,4 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 32,0 % ni tashkil etdi.

### 2019 yil yanvar-may oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 74,6 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 17,8% ni tashkil etdi. Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 7,6 % ni tashkil qiladi.

**2019 yil yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd.so'm	2018 yil Yanvar-may oylariga ga nisbatan % da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da	ming so'm	2018 yil Yanvar-may oylariga ga nisbatan % da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>4 919,5</b>	<b>109,1</b>	<b>100,0</b>	<b>1 694,7</b>	<b>107,6</b>
shaharlar:					
Nurafshon	915,1	129,1	18,6	18 945,8	127,5
Olmaliq	305,5	103,9	6,2	2 362,7	102,6
Angren	226,9	105,2	4,6	1 219,1	103,9
Bekobod	88,8	100,6	1,8	2 399,6	99,2
Ohangaron	196,7	102,4	4,0	2 083,6	101,1
Chirchiq	329,2	105,8	6,7	2 111,5	105,0
Yangiyo'l	196,5	102,3	4,0	3 291,6	101,6
tumanlar:					
Oqqo'rg'on	121,3	102,8	2,5	1 172,0	101,4
Ohangaron	60,9	101,7	1,2	645,0	100,3
Bekobod	115,4	104,2	2,3	743,8	102,6
Bo'stonliq	227,2	103,8	4,6	1 357,2	102,8
Bo'ka	117,3	103,7	2,4	946,4	102,0
Zangiota	378,0	109,2	7,7	1 937,7	108,0


	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd.so‘m	2018 yil Yanvar-may oylariga ga nisbatan % da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da	ming so‘m	2018 yil Yanvar-may oylariga ga nisbatan % da
Qibray	445,5	111,7	9,1	2 251,2	110,3
Quyichirchiq	73,8	104,5	1,5	693,8	103,1
Parkent	172,7	105,6	3,5	1 133,8	103,7
Piskent	61,4	102,3	1,2	617,4	101,0
O‘rtachirchiq	160,5	109,8	3,3	1 091,9	108,0
Chinoz	146,3	105,0	3,0	1 110,7	103,4
Yuqorichirchiq	145,1	105,4	3,0	1 089,7	103,9
Yangiyo‘l	200,2	103,3	4,1	967,6	101,7
Toshkent	235,3	101,6	4,8	1 322,8	100,3

Hududlar o‘rtasida eng yuqori o‘shish sur‘atlari Nurafshon (129,1%), Chirchiq shaharlari (105,8%), Qibray (111,7%), O‘rtachirchiq (109,8 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Eng past o‘shish sur‘atlari esa Bekobod (100,6%) Toshkent (101,6%) tumanlariga to‘g‘ri keladi. 2019 yil Yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 1694,7 ming so‘mga teng bo‘ldi. O‘shish sur‘ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 107,6% ni tashkil etdi.




### 2019 yil Yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Joriy yilda viloyatda aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng yuqori xizmatlar ulushi Nurafshon shahrida – 18945,8 ming so'mni, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 127,5 % tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng kichik xizmatlar ulushi Piskent tumanida 617,4 ming so'mni o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (101,0 %), Ohangaron 645,0 ming so'mni o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (100,3 %), Quyichirchiq 693,8 ming so'mni o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (103,1 %), tashkil etdi.


### 2019 yil Yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, %




Viloyatda eng katta ulush Nurafshon (18,4 %) Qibray (9,1 %) Zangiota (7,7 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Viloyatda eng past ulush esa Ohangaron (1,5 %), Quyichirchiq (1,5 %) va Piskent (1,2%), tumanlarida kuzatildi.

## 2019-yil Yanvar-may oylarida iqtisodiy faolyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi



2019 yil Yanvar-may oylarida  
jami xizmatlarda kichik biznesning ulushi, %



Viloyatda kichik biznesning eng katta ulushi Oqqo'rg'on (99,2 %), Quyichirchiq (98,9 %) va Yangiyo'l (98,8 %) tumanlarida kuzatildi. Viloyatda kichik biznesning eng past ulushi Nurafshon shahrida (6,9 %) tashkil etdi.

Toshkent viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: M.Tastanbekov

Tel:(71)230-86-74